

20-Iyun, 2026-yil

**JAMILA ERGASHEVANING “QAYTISH AZOBI” HIKOYASIDA
OBRAZLARINING PSIXOLOGIK TASVIRI**

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jamila Ergashevaning “Qaytish azobi” hikoyasida obrazlar psixologiyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asardagi Gulandom, Burgutali va Shavkat obrazlarining ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari hamda xarakter evolyutsiyasi psixologik tasvir vositalari orqali yoritib beriladi. Hikoyada insonning ma’naviy inqirozdan qutulish yo‘lidagi kurashi, muhabbat, mehr va insoniylikning ruhiy tiklanishdagi o‘rni ochib berilgan. Muallifning ichki monolog, psixologik portret va dialoglardan foydalanish mahorati asarning badiiy-estetik qimmatini oshirganligi ilmiy tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jamila Ergasheva, “Qaytish azobi”, psixologik tasvir, obraz, Gulandom obrazi, Burgutali obrazi, ichki monolog, ruhiy kechinma, xarakter evolyutsiyasi, badiiy psixologizm, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi, ma’naviy qaytish.*

**IN JAMILA ERGASHEVA’S STORY “THE TORMOR OF RETURN”
PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF IMAGES**

Abstract: *This article analyzes the artistic interpretation of character psychology in Jamila Ergasheva's story “The Torment of Returning” The psychological experiences, internal conflicts, and character evolution of the characters Gulandom, Burgutali, and Shavkat in the work are illuminated through psychological imagery. The story reveals a person's struggle to overcome a spiritual crisis, the role of love, kindness and humanity in spiritual recovery. It is scientifically analyzed that the author’s skill in using internal monologues, psychological portraits, and dialogues has increased the artistic and aesthetic value of the work.*

Keywords: *Jamila Ergasheva, “The Torment of Returning” psychological image, image, image of Gulandom, image of Burgutali, inner monologue, spiritual experience, character evolution, artistic psychologism, modern Uzbek storytelling, spiritual return.*

**В РАССКАЗЕ ДЖАМИЛЫ ЭРГАШЕВОЙ “СТРАДА ВОЗВРАЩЕНИЯ”
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ**

Аннотация: *В данной статье анализируется художественная интерпретация психологии образов в рассказе Джамилы Эргашевой “Боль возвращения”. Духовные переживания, внутренние противоречия и эволюция характера образов Гуландом,*

Бургутали и Шавката в произведении освещаются через средства психологического изображения. В рассказе раскрывается борьба человека за спасение от духовного кризиса, роль любви, доброты и человечности в духовном восстановлении. Научно анализируется, что мастерство автора в использовании внутреннего монолога, психологического портрета и диалогов повысило художественно-эстетическую ценность произведения.

Ключевые слова: Джамиля Эргашева, “Муки возвращения” психологический образ, образ, образ Гуландом, образ Бургутали, внутренний монолог, душевное переживание, эволюция характера, художественный психологизм, современное узбекское повествование, духовное возвращение.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari va murakkab taqdiri tasviriga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday asarlardan biri Jamila Ergashevaning “Qaytish azobi” hikoyasidir. Hikoyada jamiyatning ma’naviy tanazzuli, oilaviy muammolar, insonning hayotiy tanlovlari hamda ruhiy iztiroblari psixologik tasvir vositalari orqali yoritilgan. Muallif qahramonlarning tashqi harakatlaridan ko‘ra ularning qalbida kechayotgan kurashlarni tasvirlashga ko‘proq e’tibor beradi. Natijada asar nafaqat ijtimoiy, balki chuqur psixologik mazmun kasb etadi.

Hikoyaning bosh qahramoni Gulandom murakkab va fojiaiviy taqdir egasi sifatida gavdalanadi. U oilasini boqish maqsadida o‘z sha’ni va or-nomusini qurbon qilishga majbur bo‘lgan ayol obrazidir. Muallif uning ruhiy holatini ichki monologlar, kechinmalar va ruhiy ziddiyatlar orqali ochib beradi.

Asarning boshidayoq Gulandomning hayotdan charchaganligi seziladi. Telefon jiringlagan paytdagi holati, “Qaniydi hech kim indamasa...” degan o‘ylari uning ruhiy holdan toyganini ko‘rsatadi. U jismonan emas, ma’nan ham holdan ketgan. Oila tashvishlari, erining loqaydligi va jamiyatning unga nisbatan munosabati uning qalbida chuqur iz qoldirgan. Gulandomning eng katta fojeasi shundaki, u qilayotgan ishining yomonligini anglaydi, ammo undan chiqish yo‘lini topa olmaydi. Shu sababli obraz ichki konflikt asosida shakllanadi. Bir tomonda ona sifatidagi mas’uliyat, ikkinchi tomonda ayollik sha’ni turadi. Muallif qahramon ruhiyatidagi mana shu qarama-qarshilikni juda tabiiy tasvirlaydi. Ayniqsa, Burgutali bilan uchrashuvdan keyingi ruhiy holatlar obraz psixologizmining eng yuksak nuqtalaridan biridir. Gulandom ilk marta o‘zini inson sifatida qadrlayotgan odamni uchratadi. Bu holat uning qalbida umid uyg‘otadi. Uzoq yillar davomida o‘zini faqat moddiy ehtiyojlarni qondiruvchi vosita deb his qilgan ayol birdaniga insoniy muhabbat va hurmatga duch keladi. Shu sababli uning ruhiyatida yangilanish jarayoni boshlanadi.

Hikoyadagi eng yorqin obrazlardan biri Burgutalidir. Muallif uni ma’naviy poklik va insonparvarlik timsoli sifatida yaratadi. Burgutali Gulandomni uning o‘tmishi orqali emas, insoniy qadr-qimmatini orqali baholaydi. U boshqa erkaklardan farqli ravishda Gulandomga baxtsiz inson sifatida qaraydi. Xonadagi suhbat, uning ko‘zlaridagi yosh va Gulandomga bergan puli yigit qalbining pokligini namoyon qiladi. Burgutalining Gulandomga uylanish

taklifi ham oddiy muhabbat izhori emas. Bu insonni botqoqdan olib chiqishga bo‘lgan ma’naviy ehtiyojning ifodasidir. U jamiyat hukmiga qarshi chiqib, insoniylik tamoyillarini ustun qo‘yadi. Shu jihatdan Burgutali obrazida fidoyilik, jasorat va ruhiy poklik uyg‘unlashgan.

Hikoyadagi Shavkat obrazi alohida e’tiborga loyiq. Muallif uni yomon inson sifatida emas, balki irodasiz va mas’uliyatsiz shaxs sifatida tasvirlaydi. U xotini qanday yo‘l bilan pul topayotganini biladi, ammo vaziyatni o‘zgartirish uchun hech qanday harakat qilmaydi. Shavkatning psixologik mohiyati uning passivligida namoyon bo‘ladi. U oilani boshqarish, himoya qilish va mas’uliyatni zimmasiga olish kabi erkakka xos fazilatlar mahrum. Shu sababli Gulandomning unga bo‘lgan nafrati tobora kuchayib boradi. Biroq hikoya yakunida Shavkatning “Guli, men seni yaxshi ko‘raman” deb yig‘lashi obrazning ichki dunyosini ochadi. U sevgisiz emas, aksincha sevgisini amaliy harakatga aylantira olmagan zaif insondir. Muallif shu orqali inson xarakterining murakkabligini ko‘rsatadi.

Jamila Ergasheva hikoyada psixologik portret va ichki monologlardan keng foydalangan. Hikoyaning badiiy qimmatini psixologik tasvir vositalaridan mohirona foydalanilganida namoyon bo‘ladi. Muallif qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlashda ichki monologlardan, psixologik portretlardan, ruhiy ziddiyatlardan, dialoqlardan, ramziy tasvirlardan foydalanadi. Masalan, Gulandomning poezd yoqasida turishi uning hayot va o‘lim o‘rtasidagi ruhiy holatini ifodalaydi. Sardorning ovozigina o‘xshash bolaning qichqirig‘i esa ona qalbining so‘nmaganini ko‘rsatadigan psixologik detal vazifasini bajaradi. Shuningdek, hikoya davomida “yulduzlar”, “tun”, “osmon”, “oqimga qarshi suzish” kabi ramziy obrazlar qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Asar nomidagi “qaytish” so‘zi faqatgina makoniy qaytishni emas, balki ma’naviy, axloqiy qaytishni ham anglatadi. Gulandomning yomon yo‘ldan voz kechishi, o‘zligini qayta topishga intilishi ruhiy qaytish jarayonidir. Biroq bu qaytish oson kechmaydi. O‘tmish izlari, jamiyatning bosimi, moddiy qiyinchiliklar va insonlarning munosabati qahramonlarni sinovdan o‘tkazadi. Shu sababli “qaytish” jarayoni azob bilan kechadi va hikoya nomining mazmuni to‘liq ochiladi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning “Qaytish azobi” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrining psixologik jihatdan mukammal namunalaridan biridir. Asarda Gulandom, Burgutali va Shavkat obrazlari orqali inson ruhiyatining murakkab qirralari yoritilgan. Muallif qahramonlarning ichki dunyosini chuqur tahlil qilish orqali o‘quvchini ularning dardiga sherik qiladi. Hikoya qahramonlaridagi xatti-harakatlar insonning eng tuban holatdan ham ma’naviy yuksalishga qodir ekanini, muhabbat va mehr inson taqdirini o‘zgartirishi mumkinligini isbotlaydi. Asarning badiiy qiymati ham aynan obrazlar psixologiyasining hayotiy va ishonarli tasvirlanganidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.

20-Iyun, 2026-yil

2. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
6. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
8. Ziyoz.uz kutubxonasi

